

Date: 9th June-2025

ANBAR OTINNING QAROLAR FALSAFASI ASARINI INTEGRATIV
YONDASHUV ORQALI O‘QITISH

Kenjayeva Rayhona

TDO‘TAU 1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada mumtoz adabiyotimizning yorqin ayol ijodkori Anbar Otinning “Qarolar falsafasi” asarining adabiyot darsligiga kiritilgan qismini qiziqarli va zamonaviy uslubda o‘qitish uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu asarda mavjud bo‘lgan vaziyatlar, ayollarning davr va ijtimoiy muhitdagi o‘rni masalalari turli tarixiy va adabiy faktlar asosida ochib berilgan. Integrativ yondashuvning bir qancha tarmoqlaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: Anbar Otin, ayollar, Qarolar falsafasi, Cho‘lpon, Fitrat, mumtoz adabiyot, qora va qaro, davr, badiiy san’at.

Bugungi yangilangan adabiyot darsliklari turfa mavzular va baxsli masalalarni o‘z ichiga olganligi bilan ham juda ahamiyatli. Bu, albatta, o‘quvchida munozara madaniyatini, shuningdek, mustaqil fikrlash san’atini o‘sishiga yordam beradi. Anbar Otinning “Qarolar falsafasi” asari ham aynan ana shunday tafakkur tarzini boyitishga xizmat qiluvchi asar hisoblanadi. Asarda XIX asrda ayollarga bo‘lgan munosabat, ayollarning jamiyat ijtimoiy hayotida tutgan o‘rni, mavqeyi, ularga bo‘lgan munosabat atrofida turli falsafiy masalalar ham atroflicha yoritib berilgan. Yangilangan adabiyot darsligidan ham o‘rin olgan ushbu asar oldingi adabiyot darsliklarodan ham tushmay kelgan. Ushbu maqolada har ikkala darslikdagi ushbu asarni o‘tish uchun metodik tavsiyalar integrativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan.

Mavzuni boshlashdan oldin o‘quvchilarni mumtoz adabiyotda olgan bilimlarini faollashtirib olish lozim. Mumtoz adabiyotda sermazmun va keng ko‘lamli ijod etgan ayol ijodkorlarni:

- Nodirabegim, Uvaysiz, Dilshodi Barno, Maxzunalarning hayot faoliyatlaridan, ijodlarining mushtarak jihatlaridan ;
- ayol ijodkorlarning erkak ijodkorlarga nisbatan kamligi, buning sababi nimaga borib taqalishi;
- nega aynan siyosiy arbob bo‘lgan ayol ijodkorlarga tanilgan, vaholanki, Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida ham bir qancha ayol ijodkorlar tilga olinib, hurmat qilinganligini ham o‘quvchilardan so‘rash mumkin.
- Asar matni bilan tanishishdan oldin quyidagi link orqali Anbar Otinning asarlariga ko‘chgan biografiyasi bilan tanishtiring (Asarni biografik metod asosida tahlil qilish uchun:

<https://youtu.be/yBnTEBUFL8U>

Asarga kirish oldidan:



Date: 9th June-2025

1. **“Qaro”** so‘zinining bir-birini inkor qiluvchi adabiy-ramziy va lug‘aviy ma’nolari xususida;

Buyuklik,
muhtashamlik, qudratli,
mard, pokiza, yoshlik


Yer, zulmat, motam,
nomussizlik,
yomonlik.

“Sabbai Sayyor” dostonidagi ilk hikoyat oxiridan o‘rin olgan ushbu baytda “muboraklik” ramzi sifatida qo‘llangan:

Qora rang elga toji torakdir,
Kim bu rang ichradur, muborakdur.

“Dalli” dostonidagi bir baytda shunga ishorat borligi haqida so‘zlab, “Qorabosh tug” (qora rangli bayroq) – boshini o‘limga tikkan mard, jasur jangchilar bayrog‘ini bildirib, ayni o‘rinda eroniy larning bayrog‘iga qarshi tiklangan turkiy tug‘dir.

2. **“Falsafa”** so‘zining ma‘no qirralarini ochuvchi; asarda so‘zning qaysi ma’nolarining ustuvorligi, falsafiy ma’nolari;



3. Asarning bunday nomlanishiga sabab;

4. Asar kimlar haqida deb o‘ylaysiz?

kabi so‘rovlardan foydalaning.

I. Asar matni bilan ishlashda uning tili, uslubi, syujeti, voqealar rivoji, qahramonlar xarakteri, Anbar Otinning norozilik kayfiyati, sabab va oqibat bilan bog‘liq o‘rinlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating, lozim o‘rinlarda izohlar berib boring. Shuningdek, bu borada o‘quvchilardan kuzatuvlarini qayd qilib borishni so‘rab, matn bilan ishlab bo‘lgandan keyin muhokama qilish mumkin.

II. (11- sinf adabiyot darsligi uchun qo‘shimcha) O‘quvchilarning diqqatini matnga qaratish, ularning hayotiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida ularni to‘rt guruhga bo‘lib, quyidagi topshiriqlarni berish mumkin:

Date: 9th June-2025

1-guruh: "Baxti qarolar"

2-guruh: "Farqi qarolar"

3-guruh: "Siyrati qarolar"

4-guruh: "Qaro zulmatdagilar" o'quvchilar nazarida kimlar? Buning sababi va oqibatlari qanday? O'quvchilar fikrlarini matn asosida dalillashlariga alohida e'tibor bering.

III. Shoira inson tanasi ranglarining mutlaqo ijtimoiy ahamiyat kasb etmasligini, uning qayerda yashashi va qaysi tilda gapirishi emas, balki olam va odamga munosabatiga ko'ra farqli jihatlarini bo'lishi mumkinligini ko'rsatib beradi. Shoira qora tanlilarning kamsitilishi-yu, ularga past nazar bilan qarash aslida qora ko'ngilli insonlardan chiqishini ta'kidlaydi. (Makka ziyoratidagi bir oq tanli onaxon yoniga hansirab kelib o'tirgan qora tanli bir yigitning yuzidan oqayotgan terga qarab jirkanib, hazar qiladi. Birozdan so'ng aynan o'sha bolaning arab tilidagi insonni junbushga keltirib yuboradigan Qur'on tilovatini eshitti va o'zidan uyaldi shunday farzandi bo'lishini xohladi). Ushbu qismni alohida o'quvchilarga qog'oz variantda yoki taqdimot orqali tahlil qildirib, shu nuqtayi nazardan Afrikalik qora tanli bir bolaning **2005-yilda "Dunyoning eng yaxshi she'ri"** deb topilgan quyidagi she'rini asarga bog'lab, integratsiyalab har bir guruh bilan tahlil qilishingiz ham mumkin:

Tug'ilganimda qora edim,
Ulg'ayar ekanman qora edim,
Quyoshga chiqqanimda qora edim,
Qo'rqqanim on qora edim,
Hasta bo'lar ekanman qora edim,
O'lar ekanman hamon qoraman!

Va sen, oq bola:

Tug'ilganingda pushtisan,
Ulg'ayar ekansan, oqsan,
Quyoshga chiqqaningda qizil,
Sovuq qotganingda siyohrang,
Qo'rqqaningda sariq,
Hastalikda yashil,
O'lganingda kulrangsan!
Sen meni endi ham

"Qora tanli" deyolasanmi?!

IV. O'quvchilarni turli ijodkorlar ijodida jamiyatning ayollarga munosabati yoritilgan ushbu fikrlarini o'zaro qiyosan tahlil qilishlari uchun guruhlariga bo'lishingiz mumkin. Fikrlardagi umumiylik va farqlarni topish topshirig'ini bering. Yana shunday ayollarga munosabat ifodalangan asarlarni toping.

Ayolga munosabat		
Tanlangan asarlar (Fitrat)	Kecha va kunduz (Cho'lpon)	Qarolar falsafasi (Anbar Otin)
Mamlakatimizdagi xotinlar har daqiqada qanchadan-qancha	Zebi-hurkak ohu kabi go'zal va ilojsiz. Uning qalbi	Ular, hatto, ko'cha- ko'ylarga zarurat yuzasidan,

Date: 9th June-2025

tahqir va jafolarga duchor bo‘lib yashamoqdalar. Biz turkistonliklar o‘z xotinlarimizni odamiyat doirasidan tashqarida deb o‘ylaymiz va bechoralarga odamga qilgandek muomila qilmaymiz. Ko‘p holatda, hayvonlarning holiga yuragimiz achishadi. Ammo ayollarning parishon hollariga muruvvatimiz yetmaydi. Xotinlarimizni marhamatga sazovor, insofga loyiq va shafqatga haqli deb bilmaymiz. Bizda xotinlarni so‘kish faxr va g‘urur sanaladi, urib mayib qilishni esa erkakchilikning fazilati deb bilamiz.. Go‘yo, Alloh ularga huquq, e‘tibor va fikrlash fazilatini bermagandek.	shu qadar tozaki, yomonlik haqida o‘ylash nima ekanligini ham tushunib yetmaydi. U insonlarni sevib yashaydi. Razolat to‘lib yotgan dunyoga muhabbat ko‘zi bilan boqadi, biroq jaholat tozalik va go‘zallik bilan kelishmaydi, go‘dakday beg‘ubor bo‘lgani uchun ham bag‘ri ifloslik va kirga to‘la hayot uni sig‘dirmaydi, shudringday toza va chechakday pokiza bo‘lgani uchun hayotning shafqatsiz va badbo‘y havosida nafasi bo‘g‘iladi	masalan, qarindosh-urug‘larini ko‘rgani borish uchun chiqqanlarida, eski paranjiga o‘ranib, kampirlar kabi bukchayib yuradilar. Chunki agar qaddi qomatini adl tutib, yoki ochilib-sochilib yursalar, unlarga erkaklar tajovuz qilishlari mumkin.
---	--	--

Dars so‘nggida asar matni bilan ishlash ko‘nikmasini tekshirish uchun quyidagi *topshiriqlarni* yozma bajartiring.

1. Shoira tafakkur ko‘zi bilan qarab ayol taqdirida nimalar sodir bo‘lganini qanday bilish mumkin deydi?

J: _____

2. Nasriy bayondan so‘ng keltirilayotgan “g‘azallar” ning asarda tutgan o‘rni, shoira nima maqsadda nasriy asarda lirik janr namunasidan foydalangan.

G‘azalga qanday poetik mazmun yuklatilganligini izohlang.

J: _____

3. Namuna asosida quyidagi g‘azalda qo‘llangan badiiy tasvir vositalarini toping va tahlil qiling.

Ko‘zing och, zulmat ichra qolg‘on ul farqi qarolardur,
 Firoq-u oh-u dardg‘a bezabon baxti qarolardur.
 Tamomi farzand o‘sturdi, boqib voyaga yetkurdi,
 Suyub bag‘rig‘a bosqon mehribon, mushfi q onolardur.
 Onang, singling sanga mushfi q esa, sonsiz ayol ichra,
 Yaqin bilki, tomomisi chunin mehri giyolardur.
 Daraxti bosamardek, gullagan mevasi pishgondek,
 Necha farzand onosi eng ulug‘ koni ziyolardur.
 Bu baxtdin mamnun-u shodlik ila husni jilo bergay,
 Bu Anbardek g‘azal kuylab o‘tgon sohib navolardur

Badiiy san‘at	Asos bo‘lgan so‘zlar
Tanosib	Firoq, oh, dard

Date: 9th June-2025

4. Zaifalar ota-ona va qarindoshlarini ko'rmoq uchun borgon vaqtida eski libos kiyib, qo'lig'a aso ushlab, eski parangi yopunub, bukchayib, albatta, qari kampir holida bo'lub ko'chag'a chiqishlariga sabab nima edi?

J: _____

5. Shoir Farqi qarolarni, qaro soch, qaro ko'z, qaro xol va lola yuz, la'ldek lab, sadafdek tish va hokazolar ila tasvir etgonda, yana qaysi jihatlarini ham aytish lozim deydi?

A) vafodorligi, sodda, rahmdil, qo'rqqoligini
B) aql, farosat, himmat va g'ayrat, xizmat va mehnatlari
C) tunda, tuban chohni tubida qaro tosh ostidagi qaro murchani ko'rguvchi donishmandligini

D) zum sitam ichra ezilganini

6. Asar tarkibidan asarning umumiy g'oyasini ochib beruvchi so'zlarni toping (5-6 t).

UYGA VAZIFA SIFATIDA: Tasavvur qiling, siz Anbar Otinga zamondosh insonsiz. Siz ham Anbar Otinning kechinmalarini his qilgan holda kelajakka maktub yozing. (Ona tili, adabiyot, sotsiologiya, tarix integratsiyasi asosida)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ibrohim Haqqul. Yana qora rang talqini. O'zbek tili va adabiyoti. 2017.
2. M. Jumanioyova. Yangi O'zbekistonda xotin-qizlar mavqeining ijtimoiy-falsafiy tahlili. Journal of social research in Uzbekistan. 2023.
3. G. Polvonova. Jadid adabiyotida ayollar obrazi. Ustozlar uchun. 2024. 58-son.
4. <https://youtu.be/yBnTEBUFL8U>
5. <https://api.ziynet.uz/uploads/books/652/5b28c9217e092.pdf>

